

INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING RIVOJLANISHI NATIJASIDA
O'QUV-TARBIYA JARAYONIDA INTERFAOL USLUBLAR

TDMAU o'qituvchilari

Do'sbekov To'ychi Mengnorovich

Turayev Shavkat Suyunovich

ANOTATSIYA: *An'anaviy ta'limda ta'lim oluvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatib kelinganligi ma'lum. Texnika va innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi natijasida o'quv-tarbiya jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari) dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Ta'lim beruvchilar bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga, shuningdek, erkin fikrlab sinf (kurs) doshlari bilan o'zaro xamkorlikda ishlash va xarakat qilishlariga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchi markaziy ishtirokchiga aylanadi.*

KALIT SO'ZLAR: *Metod, Ta'lim, Joriy etish, Jarayon, Pedagog, Talaba, Tinglovchi, Fikr Mulohaza.*

Shy vaqtgacha an'anaviy ta'limda ta'lim oluvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatib kelinganligi ma'lum. Bunday usul ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, ishlash, ijodiy izlanish, tashabbus ko'rsatish qobiliyatlarini rivojlantirishga katta imkon bermasligi aniq edi.

Endilikda fan, texnika va innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi natijasida o'quv-tarbiya jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari) dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar egallanayotgan bilimlarni ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlari qidirib topishlari, mustaqil o'rganib, ularni

taxlil qilishlari, o'z bilimlarini baholashlari, to'g'ri xulosalar chiqarishga qaratilgan.

Ta'lim beruvchilar bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga, shuningdek, erkin fikrlab sinf (kurs) doshlari bilan o'zaro xamkorlikda ishlash va xarakat qilishlariga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchi markaziy ishtirokchiga aylanadi.

Pedagog-olimlarning ko'p yillar davomida ta'lim tizimida:

Nega o'qitamiz?

Nimani o'qitamiz?

Qanday o'qitamiz ?

savollariga javob izlash bilan bir qatorda

Qanday qilib samarali va natijali o'qitish mumkin? - **degan savolga ham javob qidirdilar.**

Bu esa, olim va amaliyotchilarni o'quv jarayonini texnologiyalashtirishga, ya'ni o'qitishni ishlab chiqarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga aylantirishga urinib ko'rish mumkin, degan fikrga olib keldi.

Bunday fikrning tug'ilishi pedagogika fanida yangi pedagogik texnologiya yo'nalishini yuzaga keltirdi.

O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslaxatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa. Ta'lim oluvchidan ko'proq mustaqil ishlash, ijod qilish va iroda kabi sifatlarni talab etadi.

Har qanday pedagogik texnologiyaning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxs tabiatidan kelib chiqqan holda ta'lim oluvchilarni kim o'qitayotganligi va ta'lim beruvchi kimni o'qitayotganiga bog'liq.

Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni xal etish uchun yangi axborotni o'zlashtiradigan va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir bo'lgan, zarur qarorlar qabul qiladigan, mustaqil va erkin fikrlaydigan.

Shuning uchun xam ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari, ya'ni interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba ta'lim oluvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilanish, nimanidir o'zgartirish demakdir.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar ta'lim tizimi, pedagogik jarayon hamda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritishni anglatib, bu jarayonni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

Interfaol («Inter» - bu o'zaro, «act» - xarakat qilmoq) - o'zaro xarakat qilish (yoki kim bilandir suhbatda, muloqotda bo'lish)ni anglatadi.

Interfaol ta'limning mohiyati - ta'lim oluvchilarni bir-birlaridan o'rganishlariga yo'naltirilgan ta'lim ekanligi.

Interfaol ta'lim, interfaol uslublar muntazam muloqotga asoslangan uslublar tizimi bo'lib, ta'lim oluvchilarning xamkorlikdagi va faol ishtirokidagi ta'lim va uslublar tizimi hisoblanadi. Boshqacha aytganda, o'qitishning interfaol uslublari - bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan va uylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega

bo'ladilar. Interfaol darslarda ta'lim beruvchilarning o'rni qisman ta'lim oluvchilarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi. Bu uslublarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va ta'lim oluvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik xamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga:

- ta'lim oluvchining dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi;
- ta'lim oluvchilarning o'quv jarayonida fanga bo'lgan qiziqishlarini doimiylikining ta'minlanishi;
- ta'lim oluvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi;
- pedagog va ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyati muntazam tashkil etilishi kiradi.

Pedagogik texnologiya masalalarini va muammolarini o'rganayotgan ba'zi ta'lim beruvchi, tadqiqotchilar va amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya - faqat axborot texnologiyasi bilan bog'lik hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan o'qitishning texnik vositalari, shu jumladan, kompyuterlardir. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga aniq ketma-ketlik asosida tizimli, hamkorlikda erishishlari tanlagan texnologiyalariga bog'liq.

O'qitish jarayonida maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi orqali:

- ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasida xamkorlik faoliyatini tashkil eta olishi;
- har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olishi;
- o'quv jarayonida ta'lim oluvchilar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib, taxlil etib, o'zlari xulosa qila olishi;

- o'zlariga, guruxga, gurux esa ularga baho bera olishi;

- ta'lim beruchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olishi o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi mavjud. Har xil fan o'qituvchilari qo'lida texnologiyalar turlicha ko'rinishga ega bo'ladi. Bu yerda pedagogning shaxsiy sifatlari, ta'lim oluvchilarning o'ziga xosliklari, inson va texnik ashyolar, o'quv jarayoni uchun yaratilgan sharoitlar, sinfdagi psixologik muxit va kayfiyat muhim ahamiyat kasb etadi. Bir xil texnologiyani qo'llayotgan o'qituvchi erishgan natijalar bir xil bo'lmasligi mumkin, lekin ular bir-biriga yaqin bo'ladi. Demak, texnologiya shaxs tomonidan o'zlashtiriladi va bunda shaxs asosiy aniqlovchi rolni o'ynaydi, shunday ekan, texnologiya - bu insonning amaliy faoliyatidir.

Bugungi kunda an'anaviy ta'limni zamonaviylashtirish yo'lida birgina texnologiyaga asoslangan o'qitish uchramaydi. Odatda, o'qitishda bir necha texnologiyalarning elementlari birdaniga qo'llaniladi, chunki pedagogik texnologiya - bu o'quv jarayonini to'liqligicha egallovchi loyixa, yaxlitlik, natija, ya'ni o'quv jarayonini inson va texnik imkoniyatlarini hisobga olgan holda aniq maqsad, natijaga yo'naltirilgan jarayondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari.-Toshkent, 2005.
2. Karimjonov I.A. va boshqa. Yangi pedagogik texnologiyalar.-Toshkent,2002.
3. Saydahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotga qo'llash.Toshket, 2000.yil.
4. Panfilova A.P. Innovatsionnie pedagogicheskie tehnologii. Aktivnoe obuchenie/Uchebnoe posobie.-Moskva: Izdatelskiy sentr "Akademiya", 2009-y.
5. Psixologo-pedagogicheskoe soprovozhdenie realizatsii innovatsionnix obrazovatelnix programm/Pod red. Yu.P.Zinchenko, I.A.Volodarskoy.-Moskva: Izd-vo MGU, 2007.-120 s.

6. Tolipov U .K,-, Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - Toshkent: "Fan", 2005. - 205 b.
7. <http://www.bj.pu.ru/method/4-13.html>.
8. <http://paidagogos.com/?p=124>.
9. Dusbekov T M. Tarmoq texnologiyasi asosida masofaviy ta'lim shartlari va ta'lim jarayonini tashkil etish xususiyatlari. "Ekonomika i sotsium" №11(90) 2021 www.iupr.ru
https://www.iupr.ru/_files/ugd/b06fdc_51b31efcb4674ca9bdee672781ad2a1b.pdf?index=true
10. Dusbekov T.M. DISTANCE EDUCATION AND METHODS OF ITS ORGANIZATION GALAXY In Volume 9, Issue 8, Aug, 2021 ISSN (E): 2347-6915
<https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/229/219>
11. Dusbekov T M O'zaro bog'liqlik metodi, o'rgatuvchi va o'rganuvchi tarmog'i "Ekonomika i sotsium" №12(91) 2021 www.iupr.ru
https://www.iupr.ru/_files/ugd/b06fdc_fc5cd1ee91e4482890598bb1ea9cfe1b.pdf?index=true